



XARAKTER YARATISHDA PSIXOLOGIZM (ABDUQAYUM YO'L DOSH ASARLARI MISOLIDA)

Rushana Zaripova

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o'zbek tili va

adabiyoti universiteti

tayanch doktoranti

rushanazaripova73@gmail.com

Annotatsiya: *Badiiy so'z hodisasi insonlar jamiyatiga aynan ularning o'zlarini o'zlariga tavsiflash, ta'riflash, tasvirlash, ko'rsatish orqali ta'sirlantirish san'atidir. Bu o'ziga xos murakkab jarayon bo'lib, ijtimoiy- tarixiy, maishiy-biografik, individual-psixologik hodisa va holatlarni kuzatish, ulardan ta'sirlanish, shu ta'sir doirasidan chiqmagan holda yoki shu holatga tushib tasvirlash, bayon etish, pirovard natijada boshqalarni ham ta'sirlantirishi kabi murakkab bosqichlardan tashkil topadi. Ushbu maqolada ham badiiy psixologizmning yuzaga kelish jarayoni va ularning tadqiqi Abduqayum Yo'l dosh asarlari misolida atroflicha yoritiladi.*

Kalit so'zlar: obraz, badiiyat, psixologizm, psixologik tasvir, uslub, mahorat.

Аннотация: Феномен художественного слова — это искусство воздействия на общество людей именно путем их описания, описания, описания и показа. Это самостоятельный сложный процесс, наблюдающий общественно-исторические, бытовой-биографические, индивидуально-психологические события и ситуации, находящийся под их влиянием, описывающий, описывающий и в конечном итоге состоящий из сложных этапов, затрагивающих и других. В данной статье процесс возникновения художественного психологизма и его исследование подробно освещается на примере творчества Абдукаюма Юлдоша.

Ключевые слова: образ, художественность, психологизм, психологический образ, стиль, мастерство.

Annotation: *The phenomenon of the artistic word is the art of influencing the society of people precisely by describing, describing, describing, and showing them. It is a complex process of its own, observing social-historical, household-biographical, individual-psychological events and situations, being influenced by them, describing, describing, and ultimately consists of complex stages that affect others as well. In this article, the process of the emergence of artistic psychologism and its research is covered in detail using the example of the works of Abduqayum Yoldosh.*

Key words: image, artistry, psychologism, psychological image, style, skill

So'zning har qanday badiylashtirilgan shakli, u xoh og'zaki, xoh yozma bo'lsin, inson ma'naviy-psixologik olamiga ta'sir o'tkazishi jihatidan o'ta muhimdir. Badiiy asar tayyor holga kelgan taqdirda ham, o'quvchisini topmaguniga qadar, o'zining yetakchi



estetik vazifasini bajara olmaydi. Faqat badiiy asarning o'quvchi bilan "muloqoti" boshlangan nuqtada u jonlanadi. Xuddi shu nuqtada badiiy psixologizm mexanizmi ishga tushadi. So'zlovchining yoki yozuvchining badiiy bayoni, tasvir usuli, psixologik ifodalash uslubi jonlanadi.

Badiiy so'z hodisasi insonlar jamiyatiga aynan ularning o'zlarini o'zlariga tavsiflash, ta'riflash, tasvirlash, ko'rsatish orqali ta'sirlantirish san'atidir. Bu o'ziga xos murakkab jarayon bo'lib, ijtimoiy- tarixiy, maishiy-biografik, individual-psixologik hodisa va holatlarni kuzatish, ulardan ta'sirlanish, shu ta'sir doirasidan chiqmagan holda yoki shu holatga tushib tasvirlash, bayon etish, pirovard natijada boshqalarni ham ta'sirlantirishi kabi murakkab bosqichlardan tashkil topadi.

Professor Abdurauf Fitrat bu jarayonni quyidagi jumlada qisqa va aniq tarzda shunday ifodalaydi: "Adabiyot – fikr, tuyg'ularimizdag'i to'lqunlarni so'zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu to'lqunlarni yaratmoqdir"².

O'zbek xalqining asriy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan qator dostonlarida obrazlar ichki olamini yoritib berish uchun qo'llangan psixologik usullar asar badiiyatini ta'minlashi bilan birga, badiiy psixologik tasvirning yangi bosqichga chiqishi uchun muhim bosqich vazifasini o'tagan. "Go'ro'g'li", "Alpomish", "Kuntug'mish" dostonlarida bu holat yaqqol ko'zga tashlanadi. Mazkur dostonlardagi har bir obraz boshqa obrazlar bilan muloqot jarayonida o'zining xarakter xususiyatlarini yanada kengroq ochib beradi. Voqealar rivojida ularning keskin burilishlar, favqulodda vaziyatlardagi holatlarini aks ettirishda esa bu jihat, yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Folklorshunos olim, filologiya fanlari doktori Shomirza Turdimov bu borada o'z fikrlarini bayon etar ekan, "Epos syujeti xalqning ko'ngil mulkida pishib yetiladi. Tilga ko'chadi. Bu yerda hukmbardor – xalqning ruhi. "Alpomish" buning tasdig'i"³ – deydi.

Yuqorida fikrlardan ko'rinyapdiki, badiiy psixologizmning kelib chiqishi juda qadimda, aniqrog'i, adabiyotda inson obrazi tasvirlay boshlangan davrlarga borib taqaladi. Aynan o'sha davrlardan boshlab adabiy qahramon xatti-harakatlarining asosini tashqi holatlarigina emas, balki uning ichki holatlari, intilish va ehtiyojlari tashkil qila boshlagan deyish mumkin.

Ijodkor badiiy asarda qahramon xarakterini ochib berishda turli vosita va uslubdan foydalanadi. Bu esa muallifdan alohida mahorat talab etadiki, asar qahramoni xarakterini to'la ochib berish asar badiiy qiymatini yanada oshiradi.

Atoqli adabiyotshunos T.Boboyev o'zining ilmiy qarashlarida xarakter haqida to'xtalib o'tar ekan, quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi: "Xarakter – ma'lum ijtimoiy faoliyat tipi. Xarakter, L.I.Timofeyev ayganidek, obrazning yadrosi. Xarakter, birinchi navbatda, konkret hayotiy sharoitda o'z individual xatti-harakatlari va ruhiy kechinmalari bilan namoyon bo'ladigan insonning aniq tasviri. Umuman aytganda,

² Фитрат А. Адабиёт қоидалари. Адабиёт муаллимлари ҳам адабиёт ҳаваслилари учун. Нашрга тайёрловчи, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Ҳ.Болтабоев. – Тошкент: «Ўқитувчи», 1995. – Б. 21-22.

³ Турдимов Ш. Этнос ва эпос. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – Б. 29



qahramonning muhim xususiyatlarini aniqlaydigan asosiy belgilar majmui xarakter deb yuritiladi”⁴.

Demak, olimning fikrlarini quyidagicha tushunishimiz mumkin. Ijtimoiy-tarixiy sharoitda o'z davri kishilarining muhim xususiyatlarini o'zida jamlay olgan obrazgina xarakter darajasiga ko'tarila oladi. Asar qahramonining xarakterini ochishda, nafaqat, uning xatti – harakatlari, balki uning ruhiyatlarida yuz berayotgan o'zgarishlardan ham muhim rol o'ynaydi.

Badiiy asarda milliy ruhiyatning aks etishi muhim ahamiyat kasb etib, u asarda tasvirlanayotgan voqealar, qahramonlarning ishonarli chiqishida asosiy omil vazifasini o'taydi. Adabiyotshunoslik ilmining bu jihatni aniqlashi esa millatning o'zligini anglashi uchun ham zarurdir. Zotan, o'zlikni anglash haqiqatni tanishning asosiy sharti sanaladi.

Adabiyotshunosligmizda qahramonlar ruhiyatini o'rganish asnosida milliy ruhiyat tadqiq etilgan bir qancha tadqiqotlar mavjud. Jumladan, adabiyotshunos M.Abdurahmonova “Ruhiy dunyo tasviri” risolasida Abdulla Qodiriy, Oybek, Abdulla Qahhor kabi yozuvchilarimizning tahlilga tortilgan asarlaridagi qahramonlar ruhiyatini psixologik jihatdan asoslash tamoyillarini aniqlar ekan, ayni chog'da o'zbek kishisi ruhiyati aks etgan o'rnlarga ham alohida to'xtalib o'tadi. “Badiiy so'z san'atida inson ruhiy olamining yoritilishi — psixologizm masalasi nihoyatda katta ahamiyatga molikdir, – deydi tadqiqotchi o'z qarashlarida, – Chunki psixologik tahlil jarayonida shaxsdagi barcha ichki ziddiyatlar aks ettiriladi, bu ziddiyatlarda esa ayni vaqtda davr va jamiyat ziddiyatlari, qarama-qarshiliklari o'z ifodasini topadi⁵.

Atoqli olim Hotam Umurovning “Badiiy psixologizm va hozirgi o'zbek romanchiligi” nomli monografiyasida ham o'zbekona ruhiyatga e'tibor qaratiladi.

Inson – murakkab xilqat. Biologik nuqtai nazardan qaralganda odam, garchi, benihoya murakkab xususiyatlarga ega bo'lsa ham, butkul anglanmaydigan muammo emas. Qolaversa, tobora mukammalashayotgan zamonaviy fan bu boradagi savollarga birin-ketin javob topib berayotir. Biroq insonga “murakkab” sifati buning uchungina berilmaydi, u tushunilishi mushkul ruhiyatga egaligi uchun ham doimo qiyin, gohida yechimsiz savollar manbaidir. Negaki, inson ruhiyati sirlarini aniqlash benihoya qiyin ish. Murakkab tuyg'u va kechinmalar insonga hamisha hamrohligi bois ham odam haqida tugal xulosa chiqarish deyarli imkonsizdir.

Shunday bo'lsada, sabab va oqibat munosabati har bir hodisaga tegishli. Hatto tasodif deb o'ylaydiganimiz voqealar zamirida ham biror sabab yashirin. Xuddi shu fikrni inson, uning faoliyatiga ham tatbiq etish mumkin. Zero, odamning har bir xatti-harakati, imo-ishorasi uning ruhiyati, fe'l-atvori bilan o'zaro bog'liq holda yuzaga chiqadi.

“Dunyoning sakkizinchı mo'jizasi” (O'. Hoshimov) bo'lgan adabiyot insonni tasvirlar ekan, talantli ijodkor unga xos jihatlarni ro'y-rost ifodalashga harakat qiladi.

⁴ T.Boboev. “Adabiyotshunoslik asoslari”. T: “O'zbekiston”. 2002-y. B. 52.

⁵ М.Абдурахмонова, “Рухий дунё тасвири”- “Ўзбекистон” нашриёти, Тошкент — 1977. 4-b.



Bunda u qahramonlar olamida yashay boshlaydi, ularning o'rniga o'zini qo'yib ko'radi. Shu bois ham ustoz adabiyotshunos Izzat Sultonning: "Inson psixologiyasini tasvirlovchi san'atkor o'zini har qanday insoniy ruhiy holatda tasavvur eta bilishi kerak"⁶ – degan ta'kidlari ayni haqiqat.

Badiiy asarda xarakter qirralarini, ruhiy kechinmalarni turli shakllarla tasvirlash ijodkordan uslubiy o'ziga xoslik va katta mahorat talab qiladi. Buning uchun, u avvalo, obraz tabiatini, o'ziga xosligini chuqur his qilishi darkor. Ya'nikim, agar obrazni yong'oqqa qiyoslasak, xarakter shu yong'oqning mag'zidir, degan edi nazariyotchi olim Hotam Umurov⁷.

Adabiyotda inson ichki dunyosining chuqur badiiy tadqiqi "badiiy psixologizm" deb ataladi. Boshqacha aytganda, psixologizm – adabiyot va san'atda insonning turli psixik holatlari, ruhiy kechinmalarini teran tasvirlash demakdir. Shu o'rinda badiiy psixologizm tushunchasining maydonga kelishi va qamrovining kengayishiga asos bo'lgan psixologik yondashuv haqida to'xtalib o'tish lozim. Bu borada o'zbek adabiyotshunoslida A.Alimuhamedov, H.Umurov, D.Quronov kabi olimlar muhim tadqiqotlar olib borganlar.⁸

Professor Bahodir Karimovning ta'kidlashicha: "Adabiyotshunoslidagi psixologik metod (psixogenetik mактаб) XIX asrning 70-80 yillarda G'arbiy Yevropa va Rossiya ilmiy muhitida yuzaga keldi.

Psixologik metodning taraqqiy topishida rus olimi D.N.Ovsyaniko Kulikovskiyning (1853-1920) xizmati katta bo'lgan. "Olim o'zining "Tushunish psixologiyasiga doir" asarida anglashga oid muhim qarashlarni ilgari suradi"⁹

Adabiyotda psixologizm muammosini o'rganar ekan, tadqiqotchi olim A.Iyeuzitov "psixologizm" tushunchasining o'zi ko'p ma'noli ekanligini qayd etib, uni uchga bo'lib ta'riflaydi:

1) "psixologizm" so'z san'atining belgisi sifatida";

2) "badiiy ijod mahsuli, muallif, uning personajlari va kengroq – jamiyat psixologiyasining ifodasi va aksi sifatida";

3) "ongli va estetik tamoyilni belgilovchi" psixologizm sifatida"¹⁰

Psixologizm keng ma'nodagi tushuncha ekan, uni yuzaga chiqaruvchi bir qancha tamoyillar va vositalar mavjud. Shu o'rinda dialog, ichki monolog, tush, gallyusinatsiya, ong oqimi singari vositalarni kuzatishimiz mumkin. Atoqli olim Hotam Umurov esa psixologizmni dinamik, analitik, sintetik tamoyillarini sanab o'tadi.¹¹

⁶ И.Султон. Адабиёт назарияси. Тошкент, "Ўқитувчи"– 1986-й. 386-Б.

⁷ Умуроў Х. Адабиёт назарияси. Дарслік. Т., "Шарқ"-2002, 36-б.

⁸ Алимухамедов А. Абдулла Қаҳхор ҳикояларида психологияк тасвир // Ўзбек адабий танқиди (Антология). Тошкент, Turon-Iqbol, 2011. 544 б. Б. 51-64; Умуроў Х. Бадиий психологиям ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Тошкент, Фан, 1983; Куронов Д.Роман хақида айрим мулоҳазалар. 22.03.2013 web: www.ijod.uz

⁹ Каримов Б. Руҳият алифбоси. Т.: F.Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016. – Б 178

¹⁰ Иезуитов А.Н. Проблемы психологизма в эстетике / литературе/ Проблемы психологизма в советской литературе.– Л.:1970.– С. 30. Manba: .Тулабаева. "Худойберди Тўхтабоев романларида бадиий психологизм" Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Т., 2019

¹¹ Умуроў Х. Адабиёт назарияси. Дарслік. Т., "Шарқ"-2002, 40-41-б.



Psixologizmni tadqiq qilar ekanmiz, ushbu hodisa bugungi o'zbek nasridagi o'ziga xos xarakterlarda, qahramonlar tasvirlangan badiiy asarlarda ham o'z ifodasini topganligini alohida ta'kidlab o'tish mumkin. Chunki zamonaviy o'zbek adabiyotida qahramonning ruhiy olami, uning kechinmalari tasviriga katta e'tibor qaratilgan ko'plab badiiy asarlarni uchratamiz.

Psixologik asoslanganlik qahramon xatti-harakatlari, faoliyati bilan uning ruhiyati, fe'l-atvori o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashda namoyon bo'ladi. O'zbek adabiyotida o'zining xatti-harakatiga o'zi javobgar bo'lgan qahramonlar yaratgan yozuvchilardan biri Abduqayum Yo'ldoshevdir.

Yozuvchining o'tkir nigohi odamlarni ularning ruhiyati va faoliyati bilan uzviy bog'liqlikda ko'rар ekan, ayni chog'da tashqi muhitning inson ruhiyatiga, u orqali faoliyatiga ta'sirini ham chuqur sezadi va tasvirlay biladi. Shu bois adib asarlarida qahramonlar ruhiyatining teran tahliliga duch kelamiz, obrazlar xarakteriga nomuvofiq o'rnlarni uchratish qiyin.

Abduqayum Yo'ldoshev ham o'z asarlarida obraz psixologiyasini yorqin gavdalantirgan yozuvchilardan. Bugungi o'zbek nasrining ko'zga ko'ringan vakili taniqli yozuvchi Abduqayum Yo'ldoshev o'z asarlarida oddiy insonlar xarakteri, ularning tabiatni, umuman, sodda, kamsuqum insonlar dunyosini g'oyatda mukammal yoritgan ijodkor deyish mumkin.

Yozuvchi yaratgan xarakterlar o'ziga xos xususiyatlari bilan ko'plab kitobxonlar e'tiborini qozonib kelmoqda. Xarakter yaratish badiiylikning o'zak masalasi deb qaralishining boisi ham shundaki, xarakter badiiy ijodning juda ko'p unsurlarini o'zida jamlaydi. Izzat Sulton tavsiya etganidek, "Asar mazmuni xarakter tasviri tufayli hayotiy aniqlik kasb etadi va shu bilan birga bizning hislarimizga ta'sir etish xosiyatiga ega bo'ladi".¹²

Xarakter va uning psixologiyasi tahlili adabiyotning kamoloti, yozuvchining mahorati darajasini belgilovchi bosh omildir. Darhaqiqat, "Adabiyot -xarakterlar yaratish san'ati" (I.Sulton).

Atoqli olim Hotam Umurov tadqiqotiga ko'ra, hozirga qadar o'zbek nasrida qahramon psixologiyasini ochishning uch xili yaqqol ko'zga tashlanadi. Dinamik, analistik, sintetik prinsiplar. Abduqayum Yo'ldoshev asarlari tahliliga kirishar ekanmiz, mazkur psixologik prinsiplarning deyarli barchasiga duch kelamiz.

Shu o'rinda bularning har biriga alohida tavsif berib o'tsak.

Qahramon ichki dunyosini, ruhning kechinmalarini tashqi qiyofa, holat va xatti – harakatlar orqali tasvirlash **dinamik prinsipga** mansub bo'lib, Abduqayum Yo'ldoshevning "Tushov", "Biz bo'limgan joylarda", "Homiylar", "Uch qop un", "O'zgalar fikri" kabi hikoyalarida bu jarayon o'z aksini topgan.

Asarda qahramonning ruhiy jarayoni, bu jarayonning betinim o'zgaruvchanligi, fikrlar, hislar va kechinmalarning rivoji va oquvchanligi – psixologizmning **analitik**

¹² И.Султон. Адабиёт назарияси. Дарслик. Т., "Ўқитувчи"-1986.



prinsipi bo'lib, ijodkorning "O'zgalar fikri", "Bezori", "Puankare", "Yetim so'z" singari hikoyalarida ko'proq namoyon bo'ladi.

Qahramonlarning ruhiy dunyosi ularning xatti – harakatlari, qiyofalari orqali yechilishi bilan birga ayni paytda, shu qahramonlarning fikr va hissiyotlari dialektikasi oqimi va rivojining berilishi psixologizmning **sintetik prinsipidir**. "Uch qop un", "Homiylar", "Biz bo'limgan joylarda", "Alvido, go'zallik", "Kichkina odamning katta tanishi" kabi hikoyalarda ushbu psixologik prinsipni ko'proq uchratamiz.

Inson tabiatini nechog'lik murakkab va serqirra bo'lmasin, uning ta'rif va tavsifi hamisha badiiy adabiyotda o'z aksini topadi. Biroq inson (yoki, badiiy asar qahramoni) o'zgalar bilan munosabatda, muloqotda bo'lgan lahzalarda, uning tabiatini, ichki olami, xarakter qirralari yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Aksariyat hollarda, yaxshi insonlarning yomon xulqli odamlarga aylanishiga jamiyat, atrof-muhitning salbiy ta'siri sababchi bo'ladi. Bu holatni muallifning "Alvido, go'zallik" hikoyasidagi Oysuluv obrazida ham ko'rishimiz mumkin. Yam-yashil bog'-rog'larga burkangan, afsonaviy tog'lar bag'rida ulg'aygan Oysuluv, biyday sahroga Muslimga turmushga chiqqach, xarakteri butunlay o'zgarib ketadi. Asar talaba yigit tilidan hikoya qilinadi. Hikoya avvalida "sahro oxir-oqibat baribir sahroga aylanadi" jumlalariga ko'zimiz tushadi. Dastlab, sizot suvlarning yuzaga sizib chiqishi-yu, yerning sho'rланib qolishi natijasida huvillab qolgan ovul haqida so'z ochilar ekan, negadir hamma yashash uchun qulayroq joyga ko'chib ketayotgan bir pallada Muslim Oysuluvga uylanib, shu ovulga kelin qilib olib keladi. Shunday ham yashash sharoiti og'ir cho'lda Oysuluvdek nozik, ismi jismiga monanad qizning ko'nikib ketishi mahol kechadi, albatta. Oysuluvning chiroyi ovul bo'ylab tarqaladi. Marvarid momo (Muslimning onasi)ning quvonchi cheksiz. Yangi kelinchakning go'zalligi bir maqtalsa, uning odob-axloqi ikki barobar gapiriladi. Hamma unga qiziqadi. Keksayu-yosh, mакtab o'quvchilari. Hatto, daladan qaytayotgan ishchilar ham Marvarid momoning uyi tomondan o'tib-qaytdigan bo'lishadi. Xullas, muallif Oysuluv obrazini shu qadar mohirona tasvirlaydi-ki, kitobxon ham beixtiyor bunga qiziqadi. Tasvirlaganda ham "birovlar tili" bilan tasvirlaydi. Quvonch va qayg'u, ezgulik va yovuzlik, zulmat va yorug'lik hamisha yonma-yon bo'lganidek, asar davomida Oysuluvning suluvgiga hasad qiladiganlar ham asta- sekin chiqa boshlaydi. "Cho'l shamolida rosa qoraygan, lablari, qo'llari taram-taram yorilib ketgan, faqat ko'z oqigina yiltirab ko'rinish turadigan qishloq ayollar yangi kelinchakning husni haqidagi shivir-shivirlarga g'ayirlik bilan qarashar, ba'zi shartakilari esa: "Bu nozik oyimcha biz bilan bir hafta ketmon ko'tarib, ishlasin, ana undan keyin ko'ramiz ahvolini", deyishardi...¹³

Asar boshida muallif tasviri berilgan ovulning odamlari haqida ham qisqa, lekin aniq to'xtalib ketadi. "Ovulimizning aksariyat erkaklari ichishni yaxshi ko'rishar, shu sabablimi, to'ylar janjalsiz o'tmasdi; ayollar esa kun bo'yi mol-hol tashvishi bilan band

¹³ Yo'ldoshev A. "Mashaqqatlar osha yulduzlar sari". Hikoyalar. Toshkent- "Yangi asr avlodii"- 2021. 80-b



edilar. Kechqurunlari, televizorda biron bachkana, uzundan uzoq serial bo'lib qolsagina ko'pchilik dasturxon atrofida o'tirib, shuni tomosha qilishardi.¹⁴

Birgina shu tasvir bilan butun boshli ovulning "ikki tomchi suv yanglig' bir xil o'tib borayotgan kunlari" yaqqol ochib beriladi. Ovul ayollarini "Cho'l shamolida rosa qoraygan, lablari, qo'llari taram-taram yorilib ketgan, faqat ko'z oqigina yiltirab ko'rinish turadigan" holga kelib qolishiga esa ularning erkaklari sabab qilib ko'rsatiladi. Ayollar kun uzog'i dalada ketmon ko'tarib qora mehnatda, erkaklar esa o'sha dala shiyponida aroq ichib, qarta o'ynash, onda-sonda ayollarga buyruq berib qo'yish bilan band. Vaholanki, Muslim ham shu yerda ulg'aygan, shu muhit tarbiyasini olgan. U ham boshqalar qatori ayolini dalaga olib chiqadi. "E, Xudoyim, tabiat Oysuluv yangani bunchalar nozik qilib yaratgan ekan-a! Bamisoli ketmon ko'tarsa, bas, butun vujudi shuvillab to'kilib ketadiganday" – deya tasvirlaydi.

Asarda Muslim bilan Oysuluvning qanday qilib tanishgani-yu, uzoq bu cho'lga qanday kelib qolgani haqida hech narsa deyilmaydi. Asosiy e'tibor, hali hayot lazzatidan qoniqmagan, orzulari olam qadar yosh qalb egalarining gullamasdan xazon bo'lishi, faqat qora mehnat, dala, ketmon deb umrini o'tkazayotganiga qaratiladi. (Bu holat "Tushov" hikoyasida ham berilgan bo'lib, batafsil keyinroq to'xtalamiz)

Hikoya davomida Muslim o'zining "erkakligini isbotlamoqchi" bo'lib, Oysuluvni dalaga olib chiqishi, uning qo'liga o'zidan-da og'ir ketmonni berib, daladagilar oldida izza qilishi, Oysuluvning bunga javoban lom-mim demasligi uning latofatini yanada oshiradi.

"Bu yer sening tog'dagi qishlog'ing emas, ey, paxta qo'y emas, qirda yurib o'zidan-o'zi o'savermaydi. Qiyinchilikka chidab ishlasang ishlaganing, bo'lmasa o'zingdan ko'r, ey..."¹⁵

Shu yo'l bilan xotini mensimasligini hammaning ko'z oldida isbotlagan Muslimning gerdayib shiypon tomon yo'l olishi kitobxonning ham biroz g'ashiga tegishi, tabiiy.

Oysuluv nafaqat jismonan nozik, qolaversa qalbi ham nozik, boladek beg'ubor. Har zamonda ufqqa tikilgancha munis jilmaygan ko'yi nimlalarnidir o'ylab qolar, aftidan o'z qishlog'i, o'z yaqinlarini eslardi. Keyinchalik ma'lum bo'ladiki, Oysuluv "shig'ir-pig'ir" ham yozarkan. Bir safar shunaqa narsalar bitilgan qalingina daftari-yu, bir- ikkita rayon gazetasini ko'tarib dalaga keladi-yu, baloga qoladi. Yana ayollar g'iybati. Mashqlar to'la daftar "xotira daftari"ga aylanadi, nima emish "xotira daftari"ni kim yozadi, birovni degan, erida ko'ngli yo'q xotin yozadida...

Muallif Oysuluvga nisbatan atrof-muhit munosabatini mahorat bilan shunday tasvirlaydi-ki, asar markazidagi obrazlar xarakteri, ularning psixologiyasi, jumladan, Oysuluv va Muslim xarakteri aynan ovuldagilarning gap-so'zi va munosabati yordamida o'zgarib borganligini sezamiz. Shuningdek, hikoya so'nggigacha kitobxonni "Oysuluv nima qilar ekin?", "O'zining tog'dagi qishlog'iga ketib qolsa kerak", – degan

¹⁴ Yuqoridagi manba. 79-b

¹⁵ Yo'ldoshev A. "Mashaqqatlar osha yulduzlar sari". Hikoyerlar. Toshkent- "Yangi asr avlodii"- 2021. 81-b



savollar bilan band bo'ladi. Lekin muallif hikoya oxirida kitobxonga kutilmagan holatni taqdim etadi. Bu esa hikoyaning yanada qiziqarli bo'lishiga zamin yaratishi bilan birga, Oysuluvning taqdiri, hayotning beshafqat boshqa o'zaniga burilib ketgani o'quvchini sergak torttiradi. Qalban Oysuluvga achinish hissi paydo bo'ladi. Shunday go'zallik, latofat sohibasi, beg'ubor qalb egasining hech qancha vaqt o'tmasdan tubdan o'zgarib ketganligi, kutilmagan burilish bo'ladi:

...Oradan bir yilga yaqin vaqt o'tdi. Iyun oyining o'rtalarida ovulga keldim. Uy tomon burilganimda ko'chamiz boshida telejkada olib kelingan sisternada suv tarqatilayotganini ko'rdim. Xotin-xalaj baqir-chaqir qilib chelaklariga suv olmoqda edi.

Navbat talashayotganlar yonidan o'tib borarkanman, shang'illab bir-birlarini ayovsiz qarg'ayotganlar orasida bir ovoz menga juda-juda tanish eshitildi. Beixtiyor to'xtadim va e'tiborni jalb qilmaslik uchun engashib tuflimning bog'ichini yechib bog'lay boshladim. Ha, yanglishishim mumkin emas edi - bu Oysuluv yanga edi. Biroq bu so'zlar... Men garang bo'lib qoldim.

*- ...Ha, og'zingdan qoning kelsin, Nuri, ochiritingga qarasang o'lasanmi?! Mening bolamam uyda chirqirab yotibdi-ku! O'sening bolang bola, meniki itning bolasimi?.. Hali otasi yotibdi boshini ko'tarolmay...*¹⁶

Hikoya o'smir yigit, aniqrog'i talaba tilidan so'zlab beriladi. Oysuluvning har tomonlama latofatiga shu yoshdagi nigohlar bilan boqiladi. Oysuluv umr bahorining xushbo'y chechagi, barcha uchun sevimli "Kumush checha" sifatida tasvirlangan. Lekin, oradan hech qancha vaqt o'tmasdan "odamni odam o'zgartirishi"ning yaqqol isboti Oysuluv timsolida tasvirlanadi. U mutlaqo o'zgargan edi. Salbiy tomonga. Undagi go'zallik, latofat, bolalarcha beg'uborlik, kiprik qoqmay ufqlarga termulib, qalban o'zgacha dunyoga talpingan Oysuluvdan bugun "qop-qoragina, dog' bosgan mushtday yuzini ajin to'rlatgan, sochlari to'zib ketgan, eski xalat kiygan juvon" qolgan edi. Zero, bu o'sha, bir yilgina muqaddam go'zalligi va ma'sumaligi bilan bizni hayratlarga solgan Oysuluv yanga edi...

Abduqayum Yo'ldoshning yana bir hikoyasi "Ajododdardan qolgan xastalik". Yozuvchi hikoyani peyzaj bilan yoki qahramonlar xarakterini tavsiflash bilan boshlamaydi. O'quvchining e'tiborini Tohirning xastaligi borligiga qaratmoqchi bo'ladi. Tohirning yaqinlari unga qanday munosabatdaligi va ularning xarakter xususiyatini kirish qismidagi dialoglardan ilg'aysiz. Bundan tashqari, dialogda bir yo'la tugunni ham "qistirib" o'tgan mahoratlri yozuvchi hikoya so'ngiga qadar tugunni ochmaydi, sirlilik bilan qarshilashasiz, ya'ni Tohirning qanday kasallik bilan xastalangani noma'lumligicha qoladi. Sinchkov ota, ziyrak ona, mehribon singil, bilimdon vrachning xatti-harakatlaridan, gap-so'zlaridan Tohirning kasali jiddiy degan xavotirga borasiz va hikoyani tragik holat bilan tugashiga ishonasiz. Ko'nglingizdagi bu g'ashlik xonaga og'zi qulog'ida bo'lgan vrachning kirishi bilan biroz tarqaydi, umidlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, Abduqayum Yo'ldoshev hikoyalarida davr va inson muammosi, davrning inson xarakteriga ta'siri va yozuvchining barqaror xarakterlar

¹⁶ Yo'ldoshev A. "Mashaqqatlar osha yulduzlar sari". Hikoyalar. Toshkent- "Yangi asr avlodii"- 2021. 85-b



yaratish borasidagi mahorati ochib berilgan. Abduqayum Yo'ldoshev yaratgan xarakterlarni tushunish uchun uning birligini hikoyasini o'qib chiqish kifoya qilmaydi, negaki, bir asarida yaratgan obraz, xarakter boshqa bir asarida yaratilgan obraz va xarakterning mantiqiy davomidek tuyuladi

ADABIYOTLAR:

1. Фитрат А. "Адабиёт қоидалари". Адабиёт муаллимлари ҳам адабиёт ҳаваслилари учун. Нашрга тайёрловчи, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Ҳ.Болтабоев. – Тошкент: «Ўқитувчи», 1995.
2. Турдимов Ш. Этнос ва эпос. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012.
3. Boboyev T. "Adabiyotshunoslik asoslari". T: "O'zbekiston". 2002-y.
4. М.Абдураҳмонова, "Руҳий дунё тасвири"- "Ўзбекистон" нашриёти, Тошкент — 1977.
5. И.Султон. Адабиёт назарияси. Тошкент, "Ўқитувчи"- 1986-й.
6. Умурев Ҳ. Адабиёт назарияси. Дарслик. Т., "Шарқ"-2002.
7. Yo'ldoshev A. "Mashaqqatlar osha yulduzlar sari". Hikoyalar. Toshkent- "Yangi asr avlodи"- 2021.